

Yana boshlandi... Azoyi badanida titroq uygb'lonib, to'lqindek tarqalib borar, yuragi gursillab urardi.

- Bolam, bolajonim! - Sochlari yoyiq, rangpar ayol o'z hayqirigb'lidan o'zi cho'chib burchakka sakrab tushdi. Shu zahoti jim qoldi. Tizzalarini mahkam quchoqlagancha jimb qoldi. Ko'zi esa olazarak, besaranjom. Nigoji dam eshikda, dam... Yo'q, u yoqqa qaramaslik kerak, nigoji deraza romidan, keyin oynadan qoqila-sirgb'halib tashqariga intildi. Uzoqda, juda uzoqda ko'k gumbazning sochlariqa oq oralabdi.

- Voy, bolam! - Eshikning gb'tiyqillab ochilishi ham chaqaloq yigb'hisiga o'xshardi. - Bolam... Qani bolam?

- Hozir...

Kim bu? Bu ham anavindan chiqib keldimi? Nega unda eshik rafiga suyanib, yelkalarini selkillatadi? Ko'zları bo'gb'chada, olib qo'ysa-ya?

- Onangman, bolam. Meni tanimay qoldingmi? Tinchlan, bolam!

- Ayam? Ayajon!... Bejo ko'zlaridan yosh sizdi endi.- Ayajon, bolamni hech olib kelishmayapti.

Ayasining sochlari uzun edi. Qop-qora edi, endi unga ham anavi bulutlar qo'nibdi.

- Otiring, ayajon,- dedi u en-di o'z burchagidan joy ajratarkan.

- Yonimda o'tiring.

- Xo'p, bolam.- Kampir beso'naqay harakatlanib yerga cho'kkaladi. Itoatkorligi ham ayasiga o'xsharkan. Balki chindan ayasidir.

- Siz menden qo'rqmang, xo'p! Shunaqa deydi-yu, ko'zları hamon bo'gb'chada.

- Olar, o'z bolamdan ham qo'rqsam...- Ona nuqul oyoqlarini ko'yagli ichiga yashirmoqchi bo'lardi. - Tiss! - Qizi ko'rsatkich barmogs'bini qonsiz labiga bosgancha behalovat nighohini unga qadadi.- Ayajon, sekin gaplashib o'tiramiz, xo'p! Faqat sekin gaplashamiz. Bolamni uyg'b'hotvormang tagb'bin.

- Xo'p, bolam.

- Ayajon, menga sovchilar kelganda qaerga bekinganimni aytaymi?

- Ayta qol.- Onasining tovushida iztirob.

- Tahmonga berkinib olgandim,

- Qizi yelkasini qisib, hiringladi. Keyin yengiga yuz-ko'zi, burnini qo'shib artib, yana kului:

- Sizlar bo'lsangiz izlab topolmagansiz...

- Opang topuvdi, shekilli? - deb o'smoqchiladi ona.

- Ho-o, sovchilar ketgandagisi hisobmas...- deya qiyqirdi qizi.

Endi onasi ham "kuldi. Ko'zida esa dard.

- Baribir tegdim-a, ayajon?

- Yaxshi-da... Hi-hi...

- Nega kulasiz, nimasi yaxshi? Qizi o'midan sapchib turib ketdi. Xonaning narigi burchagidagi bo'm-bo'sh kitob javoni ustidan bo'gb'chasin oldi. So'ng bagb'riga bosib, ko'zlarini yumdi. Ana rohat!..

Ona ortiq chidayolmadi. Lapanglab o'rnidan turib chiqib ketayotgandi, qizi qo'lidan tutdi.

- Jim, ayajon. Jim turing. Hozir sizga kattakon sirni ochaman, - deya qizi bo'gb'chani avaylab kitob javoni ustiga qo'ydi. Keyin borib, yana o'sha burchakka cho'kkaladi.

- Ayajon, anavini olib chiqib tashlash kerak.

- Qaysini yana?

Qizi ko'zguga ishora qildi.

- Qo'ysang-chi, bolam. Kitoblarni-ku yo'qot deding...

- To'gb'bri-da. Kitobga ishonmagandan keyin saqlashdan nima hojat? Yo siz o'sha kitoblardagi muhabbat hayotda ham borligiga ishonasizmi?

- Bilmasam...- Onaizor o'zini qanday tutishni bilmasdi.- Lekin kitoblarda nima ayb?

- Yo'q narsani bor deganlari-da! Men-chi, men kitob emasman. To'gb'birisini aytaman, muhabbat yo'q! Tamom-vassalom! - Qizi qo'llarini yozgancha ancha turib qoldi. Shu deganiga eshik ochilib, kutgani kirib kelarmidi bir.

Onasi tusmollab so'radi:

- Nima, ko'zgu ham: "Muhabbat bor, deyaptimi?

- E, qo'ysangiz-chi,- deya kuldi qizi. Keyin birdan vahimaga tushib, dedi: - Unda-chi, bitta opala yashaydi. Usha bolamni men bilan talashmoqchi.

Onaning umidlari yana so'na boshladи:

- Xo'p, bolam. Bugunoq o'sha opalani haydayman...- Voy, bu qiziga mehri qandoq edi-ya... Chindan ham ko'z yomon ekan. Dono qizi shunaqa bo'lib o'trsa-ya...

- Endi sen birpasgina uxlagin. Men ishimni qilay.

- Sekin gapiring, aya. Sirimni-chi, eshitmaysizmi?

- Eshitarman, sen dam olgin, keyin...

Yana eshik ingrab ochildi. Boyagi titroq ancha yengillashgandi. Ayol sal narida yotgan bolishni sudrab, o'z burchagiga qo'ydi. Asta yonboshladi. Faqat yomgb'bir yogb'bmasin-da. U yomgb'birdan qo'rqed. To'ylari kuni ham yomgb'bir xo'p yoqqan-ey... Keyin... gunohi kuni ham...

Bolish o'lgor qattiq ekan, bir itqitgan edi, eshikka tegdi. Eshik yana gb'birchillab ochilib, xonaga eri kirdi. Kirdi-yu, eshik oldida so'roq belgisi bo'lib turaverdi.

- Ha, kiring! - Zardasidan eri cho'chib tushdi.

- Tuzukmisan? - deya oldi bazo'r. Keyin burchakka hadik-la yaqinlashar ekan, qo'shib qo'ydi:- Ozingni tut! Otib ketadi!

"Otib ketadi?.. Albatta o'tib ke-tadi. Sizning er, mening xotin bo'lganimga o'n bir yil to'libdi-yu, o'tmaydimi? Hammasi o'tadi. Biz ham o'tdik, degisi keldi-yu, demadi. Eriga achindi. Ichkilikka berilmasidan avval qandoq edi-ya. "Yaxshi yashaymiz. Boyiyimiz, bolalarimiz ko'p bo'ladi, deb ishxona o'lgoruda jonini fido qilganda, hech kim aytmabdiki: "Hoy, inson, bu "yopiq zavodda ishlasang bitta tirnoqli ham bo'lomaysan, deb.

Eri yelkasini qisib, burchakka kelib o'tirdi. Keyin ikkilana-ikkilana xotinining bemador qo'llarini siladi.

- Juda qo'rqtvording. Agar bylsang... - "Eri ho'ngrayaptimi? - Agar bilsang, jonimdan ortiq ko'rarkanman seni.

- Kel, qiynamaylik o'zimizni, hammasi yaxshi bo'p ketadi. Belim to'la bola hali... - U yogb'biga erining madori yetmadni. Tamom!

This is not registered version of TotalDocConverter
Uzsmart.UZ

Yana boshlandimi? Butun azoyi badanida titroq uygb^honib...

- Chiqing! Chiqing, deyapman! - Ozini ushlayolmay, baqirdi ayol. Eri rangi qochgancha o'rnidan turar ekan, eshikka shoshildi: "He, onasini bu hayotning.

- Jo'nang! Arog^b^hingizni ichavering, kelib qolishar belingizdagi bolalar shu siz so'kayotgan dunyoga...

Eshikni onasi ochdi. Yugurib kelib zorlandi:

- Qo'y, bolam. Tinchlan, bolam. Qandoq qilamiz, ering sho'rlik ham ichkiliksiz yasholmaydigan bo'lib qoldi, sho'r peshonaginam.

- Bolasiz-chi, yashayapti-ku?

- Qo'y, bolam...

- Xo'p! Lekin nega unga chiqqan hukm menga joriy, aya?

- Nima deganbu? - Onasi uning to'zgb^higan sochlarini yig^bib, zorlandi.

- On yildan beri har oy takrorlanadi. Taqdirimga hukm o'qiladi. Mening taqdirimga, aya!

- Voy, uyat-e, onang o'lsin, bo-lam. Eshitganlar nima deydi, - Yuzini asabiy timtalayotgan onasining ahvoliga achinibni, ayol jahldan tushdi. Yana burchakka borib, tizzalarini quchoqlagancha xayolga toldi. Hatto bu gal eshik emas, onasi ingraganini ham payqamadi. Tog^blarni eslagisi keldi. Ularning salobati yaxshi kunlarga qo'riqchi. Yaxshi kunlar?.. Bo'lgan, albatta. Erining ishdan qaytishini kutib, ko'zlar kirtayganda ham, nigohi armonga aylangan eri tongda horg^bin umidsiz kirib kelganda ham ne sababdir ishonardi yaxshi kunlarga.

- Dod! - Xonaning shiftigacha lorsillab ketdi. Oz baqirig^bidan bag^bhri chok-chokidan so'kildi.- Dod! Bolamni beringlar! - Qarshisida qo'qqayib turgan kitob javoni bo'm-bo'sh. Yig^bblayverib yoshi qolmagan baqaloqdek baqraygan. Ustida esa... Bolajonisi?

Homiladorni urib bo'lmasmidi?

Nega ekan? Uni-chi, urishdi-ku... Juda katta gunoh evaziga juda savobga noyil bo'layotgan kunlari edi. U odam uchun birovni farzandli qilish - savob. Ayol uchun birovdan farzand ko'rish...

- Prosto.- Do'xtirning bamaylixotir nasihatini esladi.- Naydi sevgi! Sdelay bola!

Aytishga oson. Yer uni qanday ko'taradi, keyin... Yana bir tomoni: yer uni ko'tarmasa ham, balki u tuqqanini ko'tarar...

Ana o'shanda... Ishxonasida yangi usta paydo bo'lди. Yigitni zimdan kuzatgan ko'zlar ayol izmiga kirmadi. Dafatan paydo bo'lmas ekan, keyin hech qachon uygb^honmaydigan bu hisni u o'shanda tuydi.

Kunlar o'tdi. Bu vaqtincha dunyo yildirmsifatligini fosh etib, tusini o'zgartiraverdi. Hali oppoq mulla qish bo'lib, hali ko'm-ko'k g^bbo'r bahor bo'lib, hali qip-qizil yozdek betsiz bo'lib, hali sariq kuzdek armon bo'lib o'taverdi. Endi u nuqul o'sha baxtli odamni o'laydigan bo'lib qoldi. Yomg^bbir yog^bhsa bas, ho'ng-ho'ng yig^bblaydi.

Tavba, yangi ustaga o'zicha "baxtli odam deb nom qo'yanini-chi? Qo'sh o'g^billi odam baxtli bo'lmasa, kim unda? Xuddi ana shu "baxt ularning halovatini buzdi.

Yomg^bbir shiviri bois uygb^honib qolgan yaproqlar uzilgan sarhush tushlarini eslab, ezmalanganda shunaqa bo'ladi. Ozini tanimadi qoldi-ya. Gapirsa kuladigan, kulta ezmalanadigan bo'lib qoldi. Tutqun, ammo ozod edi o'shanda. Xayollari o'zgalar aytadigan qo'shiqdek edi o'shanda.

Eri ni, maza-bemaza g^bhriybat-dashnomnlarni unutdi.

Keyin ishxonadan toqqa chiqishdi. Qiy-chuv. Olov ko'yylaklari hilpiragan bir gala ayollar. Baxtli odam bir childirma chalarkan-ey. Tog^blar tomoshabin, teraklar gulduros qarsakchilar, pag^bha-pag^bha oq bulut - raqqosa... Oq bulutga sherik bo'lgandi o'zi. Bir o'ynagan-ey o'shanda...

Eshik g^bhriybat, xayoli uzildi.

Xonaga boshdan oyoq oq kiyimli kishilar kirishdi.

Onasi kirdi. Qo'lida choyshab. Ko'zlar qizargan. Choyshabni shifokorlarga uzatdi. Ular ikkalasi unga tomon yaqinlashishdi!

- Aya, jon aya! Bolamni shular o'dirishdi. Voy, dod!^bustiga choyshab tushdi. U jiqqa ho'l ekan. Eti seskandi-yu, bir zum jim qoldi. Choyshab ustidan allaqanday bog^bhich bilan bog^bhlab olgunlaricha angrayib qarab qoldi. Obbo...

U bog^bhlangancha turaverdi. Barzangilar onasidan shajarasini surishtirishdi. Lekin o'z shajarasini bilmaslik ayb bo'lmay qolganini aytmasa, yuragi shumlikni sez-a-verdi. "Endi jinnixonaga olib ketishadi. U yer tug^bhruqxonadan ham battar...

Tug^bhruqxonani esladi. Achchiq dori isi. Qovug^bhidagi alamli dard. Beli zirqiraydi. Havo yo'q.

Oshanda hayotdan hayot ajrayotgandi.

- Keserevo sechenie! - Bu degani nima edi? Qornimni yoradilarmi? Nega ekan? U "yo'q deya qichqirgandi, oq libosilar bab-baravariga shang^bbillay ketishdi:

- Yiliga tug^bhavermay, eslab yurasan shu og^bhriqni...

- Ozini ayashini-chi!

Oppoq bulut qani? Baxtli odam qani! Hammadan aziz - bolajoni qani?

Bolasiga atalgan kiyimlarni bo'g^bhchaga o'r^bab, qo'liga tutishdi...

Voy-dod! Yiliga tug^bha olsa edi, dod... Doyalar qaydan bilishsinki, bu bolaga yetishish uchun nima ishlar qilib qo'yanini...

Umrida bola emizmay, dod...

- Ayajon, jon aya. Keserevo qilishsa, mukofot puli olisharmish. Shunga hammani tilimlashyapti, ayajon!

Onasi uning boshini bag^bhriga olmoqchi bo'ldi, bosh bo'ysunmadni.

Yana boshlandimi? Butun azoyi badanidan...

Eshik? Nahotki keldi... Baxtli odammi? Yo'q, hiqichoqdan bo'g^bhilgancha g^bhirt mast baxtsiz eri kirdi. Kirdiyu:

- Ie? Hiq! Sarpolar muborak? - dedi.

Voy, bu qanday ko'rgulik? Gunohi qolib, bolajoni ketsa-ya...

Oyoqlarida majol qolmadi. Barzangilar ko'magini kutmayoq yerga gursillab tushdi.

Olib qo'ya qolsa go'rga edi-ya. Bolajoni oldiga ketib qo'ya qolsa edi-ya.

Hech narsa ko'rinasdi. Faqat bulut. Oppoq bulut...

"Yoshlik; jurnalining 1990-yil, 6-sonidan olindi.